“OSOR UL-BOQIYA” - POLIFUNKSIONAL MATN SIFATIDA ASARDAGI ILMIY, DINIY VA BADIIY USLUBLAR SINKRETIZMI.

Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Roman-german filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
bonuxusainova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asari polifunksional matn sifatida tahlil qilinadi. Asar ilmiy, diniy va badiiy uslublarning sinkretizmi jihatidan o‘rganilib, uning uch asosiy qatlamlari yani ilmiy-akademik, diniy-teologik va badiiy-filologik qatlamlar aniqlangan. Tadqiqotda asarning ingliz tiliga tarjimasi jarayonidagi murakkabliklar va tarjimon E. Zaxauning yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada Beruniy asarining murakkab matn tuzilishi, janr xususiyatlari va uning ilmiy, diniy hamda badiiy jihatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib berishga harakat qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Abu Rayhon Beruniy, Osor ul-boqiya, sinkretizm, ilmiy-akademik qatlam, diniy-teologik qatlam, badiiy-filologik qatlam, tarjima, sharqshunoslik, nomoddiy realiyalar, polifunksionallik*

Kirish

Sharq uyg‘onish davri olimi Abu Rayhon Beruniy jahon ilm-fanida o‘zining keng qamrovli merosi bilan mashhur bo‘lib uning “Osor ul-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asari Sharqshunoslikda alohida o‘rin tutadi. Asar ilmiy, diniy va badiiy qatlamlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan polifunksional matn sifatida ajralib turadi.

XIX asrda nemis sharqshunosi Eduard Zaxau arabcha matnni Leypsigda 1878-yilda nashr etib, 1879-yilda ingliz tiliga tarjima qilgan. O‘zbekistonda esa asarning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari M. A. Sale (1957) va A. Rasulev (1968) tomonidan amalga oshirilgan. Shu tariqa “Osor ul-boqiya” nafaqat tarixiy va ilmiy qiymatga, balki tarjima va filologik tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanib kelinmoqda. Maqolaning maqsadi Beruniy asarining polifunksional tabiatini o‘rganish, uning ilmiy, diniy va badiiy qatlamlarini aniqlash va ingliz tiliga tarjima jarayonidagi murakkabliklarni tahlil qilishdan iborat. Shu yo‘l bilan asarning janr xususiyatlari va turli qatlamlarning bir-biri bilan bog‘liqligini tadqiq qilish vazifasi amalga oshirilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Sharq uyg‘onish davrining qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi jahon sharqshunoslari tomonidan qariyb bir yarim asrdan buyon uzluksiz o‘rganilib kelinmoqda. Allomaning shoh asarlaridan biri bo’lmish “Osoru-l-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarining taqdiri bunga yaqqol misoldir. 1878 yilda nemis sharqshunosi E. Zaxau Leypsig shahrida asarning arab tilidagi tanqidiy matnini (“*Chronologie orientalischer Völker von Alberuni”*), bir yil o‘tib, 1879-yilda esa Londonda inglizcha tarjimasini nashr ettirdi. O‘zimizda esa bu durdona asar M. A. Sale tomonidan rus tiliga yuksak mahorat bilan o‘girilib, 1957-yilda Toshkentda chop etilgan bo‘lsa[1], A. Rasulevning mashaqqatli mehnatlari samarasi o‘laroq o‘zbek tilidagi tarjimasi ham 1968-yilda kitobxonlar qo‘liga yetib bordi.

O‘tgan bir asr davomida G‘arbda, Sharqda va yurtimizda Beruniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan shu qadar ko‘p asarlar dunyoga keldiki[2], ularning nafaqat nomini, balki mualliflarini ham bu yerda to‘liq sanab o‘tishning imkoni yo‘q. Bu alohida bibliografik tadqiqotni talab qiladigan mavzudir[3]. Shu sababli, beruniyshunoslikka eng salmoqli hissa qo‘shgan ayrim olimlarning nomlarini zikr etish bilan cheklanib qolamiz. Xorijiy olimlardan E. Zaxau, G. Zuter, E. Videman[4], K. Shoy, S. H. Baraniy, E. Kennedi, D. J. Boylot[5] va boshqalarni; rus va hamyurt olimlardan esa A. K. Arends, A. A. Ahmedov, A. M. Beleniskiy, Yu. N. Zavadovskiy, U. I. Karimov, I. Yu. Krachkovskiy, G. G. Lemmleyn, G. P. Matvievskaya, M. M. Rojanskaya, B. A. Rozenfeld[6], H. U. Sodiqov[7], A. Sharipov kabi zabardast tadqiqotchilarni tilga olish mumkin. Bu sohada P. G. Bulgakovning katta ulushi bor albatta[8]. Mamlakatimizda esa Beruniyning ilmiy merosiga bag‘ishlangan bunday maxsus xrestomatiya yoki majmualar alohida kitob holida nashr etilmagan bo‘lsa-da, uning turli asarlaridan olingan parchalar umumiy mazmundagi to‘plamlardan joy olgan. Bu borada eng salmoqli nashr sifatida 1976 yilda Toshkentda chop etilgan “O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi materiallari” to‘plamining ikkinchi nashrini ko‘rsatish mumkin.

[1] Абу Рейхан Бируни. Избр. произв. Т. I. [«Памятники минувших поколений»]. Перевод и примечания М.А.Салье // Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1957.
[2] Biruni’s Picture of the World. Ed. by A.Z.Validi Togan // Memoires of the Archeological Survey of India, № 53. Dehli, 1940; Al-Biruni in den Gärten der Wissenschaft. Übersetz und erläutert von G.Strohmaier.
[3] Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII – XVII вв.). Кн. 1 – III // М.: Наука, 1983.
[4] Suter H. und Wiedemann E. unter Mitwirkung O. Rescher. Über al-Biruni und seine Schriften // Beitrage zur Geschichte der Naturwissenschaften, LX. Sitzungsberichte der Phys.-Mediz. Societ. In Erlangen. Bd. 52/53. Erlangen, 1920/1921.
[5] Boilot D.J. L’Oevre d’al-Beruni. Essai bibliographique // Institut Domonocain d’études orientales du Caire. Mélanges, 2. Le Caire, 1955. [^16]: Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература // Избр. соч. Т. IV. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1957.
[6] Розенфельд Б.А., Рожанская М.М., Соколовская З.К. Абу-р-Райхан ал-Бируни (973 – 1048) // М.: Наука, 1973.
[7] Садыков А.У. Бируни и его работы по астрономии и математической географии // М., 1953. [^19]: Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Беруни // Ташкент: Изд-во «Узбекистан», 1972.
[8] Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни // Ташкент: Фан, 1972; Булгаков П.Г. К истории среднеазиатско-иранских научных связей в конце X века // Общественные науки в Узбекистане. 1989. № 9. С. 45 – 49.

To‘plamning yo‘nalishidan kelib chiqqan holda, unga asosan Beruniyning dunyoqarashini aks ettiruvchi, shuningdek, naturfilosofiya (tabiat falsafasi), sotsiologiya va din tarixiga oid qarashlarini ifodalovchi materiallar kiritilgan.

Tadqiqod metodologiyasi

Ushbu tadqiqot asarni **sinkretik polifunksional matn** sifatida tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida matnni uslubiy tahlil qilish yani asardagi ilmiy, diniy va badiiy qatlamlar ajratildi va ularning har biri tahlil qilindi. Jumladan: Ilmiy-akademik qatlam bo’lmish astronomiya, matematika va geografik terminlar va diniy-teologik qatlam hisoblanmish Qur’oni Karim va hadislar iqtiboslari, diniy matnning ingliz tiliga tarjimadagi strategiyasi tahlilga tortildi. Shuningdek badiiy-filologik qatlam - she’riyat va nasr unsurlari, saj’ san’ati, qadimgi arab va fors dostonlari parchalarining tarjima jarayonidagi murakkabliklari ham tahlil qilindi. Bundan tashqari tarjima tahlili yani Eduard Zaxau 1879-yilgi inglizcha tarjimasidagi ilmiy aniqlik, diniy saqlovchi strategiya va badiiy elementlarni yetkazish uslublari ham o’rganib chiqildi. Shu bilan birga komparativ bibliografik tahlil yani asarning turli tillardagi tarjimalari va olimlarning izohli ishlari (P. G. Bulgakov, Sh. S. Kamoliddin, M. A. Sale va boshqalar) misolida solishtirib berilgan. Yuqorida takidlangan metodologiya yordamida asarning polifunksionalligi, qatlamlarning o‘zaro bog‘liqligi va tarjima jarayonidagi muammolarni ilmiy jihatdan aniqlash imkoniyati yaratildi.

Tahlil va natijalar

“Osor-ul-boqiya” asari ko‘p qatlamli matn sifatida ilmiy, diniy va badiiy uslublar sinkretizmi masalasida Beruniy idiouslubining o‘ziga xosligi va uni ingliz tilida qayta yaratish muammosini tadqiq etishda, eng avvalo, “Osoru-l-boqiya” asarining janr xususiyatini aniqlab olish lozim. Ushbu asar XIX asr G‘arb sharqshunosligida dastlab sof *xronologiya* yoki *tarix* deb qabul qilingan bo‘lsa-da, uning matn tuzilishi ancha murakkab sinkretik (qorishma) tabiatga ega ekanligi yaqqol ma’lum.

Shunday ekan asar matnini uslubiy jihatdan uch asosiy qatlamga ajratish mumkin, bu esa tarjimon Eduard Zaxau oldiga tarjima qilish jarayonida uch xil murakkab uslub vazifani qo‘ygan:

1. Ilmiy-akademik qatlam (The Scientific Stratum): Asarning o‘zagini aniq fanlar - astronomiya, matematika va matematik geografik atamalar tashkil etadi. P. G. Bulgakov va Sh. S. Kamoliddin ta’kidlaganidek, Beruniy koinot tuzilishi, yer sharining o‘lchamlari va osmon jismlarining harakati haqida so‘z yuritganda, o‘ta qat’iy va quruq ilmiy tildan foydalanadi[9]. Masalan, *falaku-l-buruj* (zodiak doirasi/ekliptika), *maylu-l-*

[9] Булгаков П., Камолиддин Ш. Вселенная, Земля и Человек в трудах Абу Райхана Беруни: Аналитический свод... – Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2012. – С. 29-35.

kulliy (ekliptika og‘ishi), *ta’dil* (tenglama) kabi atamalar matnda ko‘p bor uchraydi. E. Zaxauning vazifasi bu o‘rinda filolog emas, balki astronom bo‘lishni talab qilgan. U arabcha ilmiy terminlarni XIX asr Yevropa fani tiliga (*lot. obliquitas, aequinoctium*) moslashtirishi kerak edi. Biz keyingi boblarda Zaxauning bu atamalarni ingliz tiliga o‘girishda *ilmiy aniqlik* (scientific precision) tamoyiliga qanchalik amal qilganini ko‘rib chiqamiz.

2. Diniy-teologik qatlam (The Theological Stratum): “Osoru-l-boqiya” - bu musulmon mutafakkirining asaridir. Asarning muqaddimasi an’anaviy islomiy hamd (Allohga maqtov) va na’t (Payg‘ambar sallolohu alayhi vasallamga salavot) bilan boshlanadi. E. Zaxau nashrga tayyorlagan 1923-yilgi arabcha matnning ilk sahifalaridanoq biz Qur’oni Karim oyatlari va hadislar iqtibos sifatida keltirilganini ko‘ramiz. Zaxau 1879-yilgi tarjimada bu qatlamga nisbatan *saqlovchi strategiya* (preservation strategy)ni qo‘llagan, ya’ni u “Bismillah”ni yoki “Alhamdulillah”ni shunchaki tashlab ketmagan yoki sekulyar yani dunyoviylashtirmagan, balki ularni *In the name of God...*, *Praise be to God...* shaklida, yuksak biblik (Injil) uslubiga xos vazminlik bilan o‘girgan. Bu esa ingliz kitobxonida muallifning diniy mansubligi haqida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi.

3. Badiiy-filologik qatlam (The Artistic/Literary Stratum): Bu qatlam tarjima uchun eng murakkab to‘siq hisoblanadi. Beruniy o‘z fikrlarini dalillash uchun qadimgi arab she’riyatidan (johiliyat davri shoirlaridan), fors dostonlaridan ko‘plab parchalar (shavohid) keltiradi. Bundan tashqari, asarning nasriy qismida ham ba’zan saj’ (qofiyali nasr) san’ati qo‘llanilgan. E. Zaxau 1879-yilgi nashrning “Kirish” qismida (“Preface”) Beruniyning uslubi haqida shunday yozadi: “Uning uslubi o‘ta qisqa va lo‘nda... ba’zan esa haddan tashqari siqiqligi tufayli tushunarsizdir”[10]. Tarjimon she’riy parchalarni ingliz tiliga o‘girishda qofiyani saqlashga emas, balki mazmunni (semantikani) aniq yetkazishga urg‘u bergan, bu esa uning filologik tarjima maktabiga mansubligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Osoru-l-boqiya” – bu sinkretik matn. Unda astronomik jadval diniy duo bilan yonma-yon kelgan, tarixiy sana esa badiiy she’r bilan almashinib turadi. E. Zaxauning fenomeni shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham astronom, ham ilohiyotshunos, ham shoir-tarjimon rolini bajarishga majbur bo‘lgan va buni juda yahshi uddalay olgan.

Xulosa

“Osor ul-boqiya” asari sinkretik, ya’ni bir nechta qatlamlarni birlashtirgan matn sifatida qaralib unda ilmiy (astronomiya, matematika), diniy (Qur’on, hadis) va badiiy (she’riyat, nasr) qatlamlar bir-biri bilan uyg‘unlashib kelgan. E. Zaxauning tarjima

[10] Sachau, C. Eduard. "Preface". In: The Chronology of Ancient Nations. London: W.H. Allen & Co., 1879. – P. VIII. ("...his style is very concise... sometimes obscure...)

jarayoni shuni ko‘rsatadiki, u bir vaqtning o‘zida astronom, ilohiyotshunos va shoir sifatida faoliyat olib borgan. Asarning polifunksionalligi va turli qatlamlarning sintezi Beruniy merosining nafaqat ilmiy, balki badiiy va diniy ahamiyatini ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beruniy, A. R. (1968). *Osoru-l-boqiya* (O‘zbekcha tarjima). Toshkent: A. Rasulev.
2. Sale, M. A. (1957). *Osoru-l-boqiya* (Ruscha tarjima). Toshkent.
3. Zaxau, E. (1878). *Chronologie orientalischer Völker von Alberuni*. Leypsig.
4. Zaxau, E. (1879). *Chronology of Oriental Peoples* (Inglizcha tarjima). London.
5. Bulgakov, P. G. & Kamoliddin, Sh. S. (20-asr). Beruniy ilmiy merosi tahlili.
6. “O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi materiallari”, 2-nashr, Toshkent, 1976.